

## SALOMLASHISH ODOBI

*Razoqova Nurjahon Nurboy qizi - BuxDPI*

*Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi,*

*Eshonqulova Huriyat - Buxoro shahar*

*17-maktab o‘qituvchisi*

*D.N.Xayrullayeva - BuxDPI o‘qituvchisi*

**Maqsad:** **Ta’limiy:** O`quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo’lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo’lish bilimini shakllantirish

**TK2:** axborot manbalari (televizor, telefon)dan to‘g‘ri foydalana olish

**FK1:** suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish ;

**Tarbiyaviy:** Odob-inson ko’rki va ma’naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma’rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o’g’itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o’zbekona urf-odat va an’analarining millliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o’rgatish .

**TK4:** Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

**Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mavzuga oid bilim, ko`nikma , malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishslash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og`zaki nutqini o`stirish. **FK1:** O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot bera olish

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** Suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishslash.

**Dars jahozi:** Darslik, taxta, bo`r, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Darsning borishi.**

| T/R         | Bo’limlar   | Vaqti            |
|-------------|---|------------------|
| 1           | Tashkiliy qism                                    | 3 daqiqa         |
| 2           | O’tgan mavzuni mustahkamlash                      | 5 daqiqa         |
| 3           | Yangi mavzu bayoni                                | 15 daqiqa        |
| 4           | Yangi mavzuni mustahkamlash                       | 10 daqiqa        |
| 5           | O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa        |
| 6           | Uyga vazifa                                       | 2 daqiqa         |
| <b>Jami</b> |   | <b>45 daqiqa</b> |

**I. Tashkiliy qism:** Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o`quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O`tilgan mavzuni mustahkamlash.** O`tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o`tkaziladi. O`tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O`quvchilar topshiriqlarni bajarib, o`tilgan mazuni qismlarga bo`lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o`qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

1. Siz qanday salomlashasiz?
2. Salomlashish qoidasi qanday?

### **III. Yangi mavzu bayoni:**

Salomlashish insonlar orasida mehr-oqibat va do'stlik tuyg'ularini paydo qiladi. Chunki salom berish orqali insonlar bir-birlariga salomatlik va tinchlik tilaydilar

Ikki mo'min bir-biriga duch kelganida, xoh tanish va xoh notanish bo'lsin, salom berishlari kerak. Salomlashish sunnatdir. Bir kishiga salom berilsa, javobi farzi ayndir, ko'p kishiga salom berilganida, bir kishi javob qaytarsa, kifoya. Salomni "Assalomu alaykum!" yo "Assalomu alaykum va rohmatullohi va barokatuh!" deb to'liq aytish kerak. Javobda "Va alaykum assalom!" yo "Va alaykumus-salamu va rohmatullohi va barokatuh!" deyiladi. Javob albatta to'liq aytildi, qisqa qilib aytilmaydi. Javob kechiktirilsa, salom beruvchiga eshittirilmasa, farz gardandan tushmaydi. Bir kishi ko'pchilik mo'minlarning oldiga kirsa, bir kishini emas, barchani qasd qilib salom beradi. Ammo ko'chada va bozorda bir kishini xoslab salom bersa ham bo'ladi.

Agar bir kishi boshqa kishiga birovdan salom aytib yuborsa, o'rtadagi odam salomni yetkizsa, darhol javob berish vojib. Agar maktubda salom bitilsa, u holda ham javob lozim bo'ladi. Salom berishda qo'l, kaft, bosh bilan ishora qilinmaydi. Bunday qilish makruhdir. Baland ovozda salom beriladi va javob ham salom beruvchiga eshitgiriladi. Agar karga yo gungga salom berilsa, ham ovoz chiqariladi, ham qo'l bilan ishora qilinadi. Agar kar yo gung salom bersa, javobda ham talaffuz, ham ishora bo'lishi kerak. Katta kichikka, otliq (har qanday ulovdag'i odam) piyodaga, yurgan o'tirganga, boy kambag'alga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi. Begona kishi chiroyli xotinga salom bermaydi, agar u salom bersa, javob olmaydi. Xotinlarning ham bir-birlariga salom berishlari sunnatdir va javobi shartdir.

### **SALOMLASHISH QOIDALARI:**

**Bolalar ertalab yuz-qo'llarini yuvib  
bo'lgach, ota-onalariga va o'zidan  
kattalarga salom beradilar**



**Xonaga kirgan odam  
xonadagilarga salom beradi**

**Yurib ketayotgan odam o’tirgan odamga  
salom beradi**



**Odobli bola doim tabassum bilan:  
“Assalomu alaykum”, – deb salom**

- IV.**  
**1. Rasmimizga nom qo’shamas.**



**V. O’quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash.**

O’quvchilar darsdagi ishtirokiga ko`ra baholanadi. Rag`bat kartochkalari orqali baholanadi. Guruhlar ham umumiy rag`batlantirilib boriladi.

**VI. Uyga vazifa** Uyga mazifa bugungi mavzuni o`qib kelish, qayta hikoyalashga tayyorlanish, xulasa chiqarish.